Uchinchidan, til ta'lim va tarbiya taraqqiyotini belgilab beruvchi, jamiyatning progressiv rivojini ta'minlashga xizmat qiluvchi, inson ongi va tafakkuri, bilishi natijadorligini, ko'lami va samaradorligini ko'rsatib beruvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (o'quv qo'llanma). T., 'Fan", 2007.
(2). Gusserl E. Logicheskie issledovanie. M., 1998.
(3). Лингвопоэтика русской литературы эпохи постмодерна. СПб., изд-во С.-Петерб. ун-та, 2007.
(4). Липкин А.И. (ред.). Философия науки. "ЭКСМО", 2007.
(5). Mamadiyeva N. Falsafa (mantiq qismidan). O'quv qo'llanma, Toshkent, 2011.
(6). Файзихўжаева Д. Мантиқ: изоҳли луғат. Т., "Tamaddun", 2015.
(7). Xudayberganov R. Tilning ilmiy-falsafaiy xususiyatlari. Oriental Renaissance. Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023.
(8). Hamdamova A. Falsafa. T., 2008.
(9). Ergasheva M. Ta'lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. Samarqand, SamCHTI, 2022.
(10). Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Darslik, Samarqand, SamDU, 2021.

Ergasheva Maxbuba Xotambekovna (Sharof Rashidov nomidagi SamDU professori (v.b), f.f.d. (DSc); maxbubaergasheva84@gmail.com)

O'ZBEK FALSAFASIDA ZARDO'SHTIYLIK TA'LIMOTI VA "AVESTO"NING TUTGAN O'RNI

Annotatsiya. *Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston ilm-fan, din, falsafa, adabiyot, san'at qadimdan rivojlangan hududlar sarasiga kiradi. O'zbekiston zaminida qadimiy diniy va falsafiy tafakkur rivojining yorqin misoli sifatida muqaddas tarixiy yodgorlik "Avesto"ni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu muqaddas asarda ekologiya, falsafa va tarix sohalariga oid bilimlar barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy, maishiy masalalarga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Avesto" tufayli qadimgi ajdodlarimiz ongiga ilm, qalbiga ro'shnolik, qo'liga hunar olishga intilishgan. "Avesto"ni o'ziga xos diniy-falsafiy manba sifatida tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lishiga qaramay bu manba haqidagi ilmiy munozaralar hamon davom etmoqda. "Avesto", falsafiy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy barhayot g'oyalari bilan bugungi kun falsafiy va ilmiy dunyoqarashini, tafakkur tarzini shakllantirish uchun ko'mak bera oladi.*

Kalit so'zlar: *"Avesto", zardushtiylik, ma'naviy meros, Markaziy Osiyo falsafasi, falsafiy tafakkur, ezgulik, yovuzlik, axloq, falsafiy-metodologik tahlil.*

ЗОРОАСТРИЙСКОЕ УЧЕНИЕ И РОЛЬ «АВЕСТЫ» В УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *Центральная Азия, в частности Узбекистан, является одним из регионов, где с древнейших времен развивались наука, религия, философия, литература и искусство. В качестве яркого примера развития древней религиозно-философской мысли на земле Узбекистана уместно привести священный исторический памятник «Авеста». Большое внимание также уделяется социально-экономическим, духовно-этическим, образовательным, бытовым вопросам. В частности, благодаря «Авесте» наши древние предки стремились приобрести знания в уме, просвещение в сердце и умения в руках. Несмотря на то, что исследование «Авесты» как уникального религиозно-философского источника началось во второй половине XVIII века, научные дискуссии об этом источнике продолжаются до сих пор. «Авеста» с ее философскими, духовными, просветительскими, нравственными, политическими, правовыми жизненными идеями может помочь сформировать философско-научное мировоззрение и образ мышления современности.*

Ключевые слова: *"Авеста", зороастризм, духовное наследие, среднеазиатская философия, философское мышление, добро, зло, этика, философско-методологический анализ.*

ZOROASTRIAN TEACHING AND THE ROLE OF THE AVESTA IN UZBEK PHILOSOPHY

Annotation. *Central Asia, in particular Uzbekistan, is one of the regions where science, religion, philosophy, literature and art have developed since ancient times. As a striking example of the development of ancient religious and philosophical thought on the soil of Uzbekistan, it is appropriate to cite the sacred historical monument "Avesta". Much attention is also paid to socio-economic, spiritual, ethical, educational, and everyday issues. In particular, thanks to the Avesta, our ancient ancestors sought to acquire knowledge in the mind, enlightenment in the heart and skills in the hands. Despite the fact that the study of the "Avesta" as a unique religious and philosophical source began in the second half of the 18th*

century, scientific discussions about this source continue to this day. "Avesta" with its philosophical, spiritual, educational, moral, political, legal life ideas can help shape the philosophical and scientific worldview and way of thinking of our time.

Keywords: *"Avesta", Zoroastrianism, spiritual heritage, Central Asian philosophy, philosophical thinking, good, evil, ehics, philosophical and methodological analysis*

Kirish (Introduction). Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston ilm-fan, din, falsafa, adabiyot, san'at qadimdan rivojlangan hududlar sarasiga kiradi. O'zbekiston zaminida qadimiy diniy va falsafiy tafakkur rivojining yorqin misoli sifatida muqaddas tarixiy yodgorlik "Avesto"ni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu muqaddas asarda ekologiya, falsafa va tarix sohalariga oid bilimlar barobarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy, maishiy masalalarga ham katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Avesto" tufayli qadimgi ajdodlarimiz ongiga ilm, qalbiga ro'shnolik, qo'liga hunar olishga intilishgan. "Avesto"ni o'ziga xos diniy-falsafiy manba sifatida tadqiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lishiga qaramay bu manba haqidagi ilmiy munozaralar hamon davom etmoqda. "Avesto" O'zbekiston diniy-falsafiy tafakkuri taraqqiyotidagi muhim manba hisoblanadi. Ma'lumki, zardushtiylik ta'limoti hamda uning muqaddas diniy va falsafiy manbasi "Avesto" Amudaryo sohillarida, Xorazm o'lkasida vujudga kelgan. Professor B.O.To'rayev ta'biri bilan aytganda: "Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida eng qadimgi falsafiy fikrlar tarixini miloddan 6–7 ming yillar muqaddam qadimgi Xorazm tuprog'ida shakllangan zardo'shtiylik diniga asoslangan sivilizatsiyadan boshlash to'g'riroq bo'lur edi. Bu davrlarda kishilar muqaddas sanamlar va qudratli kuchlarga sig'inib, bu kuchlardan najot topish maqsadida ularga e'tiqod qila boshlaganlar [8]. Ayni paytda bunday kuchlar to'g'risidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar vujudga kelgan" [2;136-b.]. Ushbu falsafiy tasavvurlar zamirida dunyoni dualistik asosida anglash yotadi. Insoniyat ezgulik va yovuzlik, yorug'lik va zulmat, suv va olov, yaxshi va yomon ilohlar hamda shu kabi barcha narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari haqida fikr yurita boshlashgan. "Avesto" yakkaxudolikka asoslangan dunyodagi birinchi jahon dini bo'lib, undagi barcha asosiy g'oyalar hozirgi jahon dinlarida ham o'z ifodasini topgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekistonda 2001-yil "Avesto"ning 2700 yillik yubileyi o'tkazilishi munosabati bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu kitobning vatani qadimgi Xorazm ekanligi haqidagi g'oyani ilgari suruvchi tadqiqotchilar soni ancha ko'paydi. Ayniqsa, F.Sulaymonova, M.Umarzoda, A.Qayumov, A.Mahkam, T.Mahmudov, A.Sagdullayev, M.Is'hoqov, M.Homidov, G.Mahmudova, S.Arifxonova kabi o'zbek olimlarining avestoshunoslik borasida olib borgan tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir.

"Zardushtiylik degan nom dinga nisbatan shartli ravishda o'rta asrlardan boshlab ishlatiladi. Bu hol dinni uning payg'ambari nomi bilan atashdir. Aslida, Zardusht dini Mazda Yasna deb atalgan, ya'ni Mazdaga "Mutlaq oqil" zotga sig'inish demakdir" [3;4-b.]. Zardusht falsafasining shakllanishi butun dunyo dinlarining shakllanishiga asos bo'la oldi. Zardusht falsafasi Markaziy Osiyoda yashagan ajdodlarimizning ilk falsafiy fikrlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda, asosan, mustaqillik yillarida avestologiya sohasida keng ko'lamdagi tadqiqotlar amalga oshirildi. 2001-yil Avestoshunos olim Asqar Mahkam tomonidan "Avesto" kitobining o'zbek tiliga tarjima qilinishi bu sohadagi ilmiy va amaliy yutuqlardan biri bo'ldi. Shuningdek, o'zbek avestologiyasi sohasida M.Is'hoqovning Yasht va Videvdot qismlari o'zbek tiliga tarjima qilishi muhim tadqiqotlardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, 2001–2020-yillar davomida O'zbekistonda avestologiya sohasida muhim tadqiqotlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda ham barcha fan tarmoqlari qatori falsafada "Avesto" qadimiy falsafiy manba sifatida ko'plab faylasuf olimlarimiz tomonidan o'rganilmoqda. Uning ontologik, gnoseologik va sinergetik tahlili yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, D.Bozarov "Avesto"dagi sinergetik o'zaro muvofiqlik tomonlarini, B.O.To'rayev "Avesto"da borliq va vaqt masalasini [9;223-b.], M.Abdullayeva "Avesto"dagi sinergizmni [4;51-b.], N.Safarova, G.Bekpulatova zardushtiylikdagi ekologik munosabatlarni (7;64-b.), G.Mahmudova Avesto metodologiyasida ilmiy bilish masalalarini [5;38-b.], S.Arifxanova zardushtiylikda borliq masalalarini, B.Rahmonov "Avesto"da ruhiy-ma'naviy o'z-o'zini tashkillashtirish g'oyalarini tadqiq etib kelishmoqda [6]. Biz esa o'z tadqiqotlarimizda "Avesto"dagi falsafiy, ma'naviy, axloqiy g'oyalarni zamonaviy metodologiyalardan biri hisoblangan sinergetika kategoriyalari orqali tadqiq etib kelmoqdamiz [11;63, 12;94, 13;28, 14;159, 15;55]. Zero, zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi "Avesto"da faqatgina diniy qarashlar emas, balki dunyoviy, ilmiy, axloqiy, hatto, davlat boshqaruviga oid qoidalar ham bayon etiladi. Shu boisdan O'zbekistonda aksiologik jihatdan avestologiyaga qiziqish ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot ishida ilmiy bilishning analiz va sintez, tizimli tahlil, obyektivlik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). "Avesto"ning falsafiy qimmati shundaki, u insonlarni tabiat, jamiyat butun borliq haqidagi turli-tuman fikrlarining yagona sistemaga solishga imkon berdi. "Avesto" olam, tabiat, borliq, inson, jamiyat haqida falsafiy bilimlarning ilk sistemalashtirilgan, tartibga solingan falsafiy manbalaridan biridir. Asarda inson va tabiatning uyg'unligi, tabiatni, olamni asrash orqali inson o'z-o'zini asrashi mumkinligi e'tirof etilgan. Bu olamdagi sabab va oqibat haqidagi dastlabki falsafiy g'oyalarning ifoda etilishidir.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, bizni qurshab turgan olam substansiyasini to'rt element (chor unsur): tuproq, suv, havo va olov tashkil etadi. Olam borlig'ining eng murakkab shakli hisoblanmish odam ham o'sha unsurlar asosida o'zining mavjudligini namoyon etadi. Bu bog'liqlik, o'z navbatida, olamga qanday munosabatda bo'lsang, o'zingga shunday shunday munosabatda bo'lgan hisoblanasan, degan mantiqiy xulosani keltirib chiqargan. Shuning uchun tabiat va inson o'rtasidagi aloqadorlikka tahdid solmaslik darkor. Zero, ular olamning yaxlit bir sistema sifatida barqarorligini ta'minlovchi asosiy elementlar hisoblanadi. Ontologik nuqtayi nazardan qaraganda, zardushiylar kosmogenezisi – bu nodir falsafiy va diniy ta'limot hisoblanib, o'zining ilmiylik darajasi bilan insonni lol qoldiradi. Borliqni, hayotni ulug'lash "Avesto"dagi eng asosiy g'oya hisoblanadi. "Avesto"da zikr etilgan quyidagi dialogik g'oyalar orqali biz ajdodlarimizning olam, tabiat, borliq xususidagi falsafiy fikrlari doirasi azal-azaldan naqadar keng bo'lganligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

"Ey Axura! Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber: Ibtidoda borliqning yaratuvchisi va haqiqatning otasi kim edi?"

"Ey Axura. Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber: Oyoqlarimiz ostiga to'shalgan zaminni kim yaratdi? Boshimizga yiqilmay turgan osmonni yaratgan kim?"

"Meni nega yaratding? Kim meni ato ayladi. G'azab va adovat, qabihlik va gustohlik, egrilik va tubanlik meni butkul qurshab olgandir..." [1;192–193-b.].

Demak, "Avesto"da bayon etilgan ushbu g'oyalar "Borliq nima?", "Yer nima?", "Osmon nima?", "Bor bo'lishning o'zi nima?" "Quyosh va yulduzlar nima?" kabi falsafiy savollarga javoblarning ilk kurtaklari haqidagi ma'lumotlardir. Ammo hanuzgacha ko'plab falsafiy adabiyotlarda ilk borliq va olam yaralishi xususidagi falsafiy g'oyalar taraqqiyoti haqida fikr yuritilganda, asosan, Hindiston, Xitoy, Gretsiya, Rim tilga olinadi. Ayniqsa, Hind "Vedalar"i falsafiy qarashlarning kurtaklari, deya e'tirof etiladi. Ammo "Vedalar"da bayon etilgan borliqning bosh manbayi, moddiy ibtidosi deb hisoblangan suv, olov, havo, tuproq haqidagi mulohazalar aynan o'sha davrlarda yaratilgan muqaddas "Avesto" g'oyalarida ham o'z aksini topgan.

"Avesto" kitobidagi tabiat xususida berilgan quyidagi g'oyalar diqqatga sazovordir.

"Zardusht Axura Mazdadan so'radi:

– Ey Axura Mazda,

Zaminni hammadan ham baxtiyor qiluvchi zot kim?

Axura Mazda javob berdi:

– Ey Zardusht!

Kimki uni yaxshilab haydasa va ziroatga tayyorlasa:

– Ey Zardusht:

Kimki g'alla eksa, u haqiqatni ekadi..." [1;358-b.].

"Avesto"dagi falsafiy g'oyalar shuni anglatadiki, dunyo, koinot, tabiat haqidagi tasavvurlarni ikki qutb o'rtasidagi kurash tarzida tushunish, barcha hodisalar voqealar zamirida, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi kurash yotadi. Zardushtiylikning ushbu fikri juda ham muhim – yovuzlik bor edi, hozir mavjud, lekin kelajakda bo'lmaydi. Bundan tashqari, zardushtiylik "dunyo paydo bo'lishi haqidagi topishmoqni" javobini topib berdi.

Ma'lumki, butun olam, koinot paydo bo'lgandan buyon doimo o'zgarishda, harakatda, rivojlanishda bo'lgan murakkab sistema hisoblanadi. Olam mavjud ekan, u doimo zamonlar o'tgan sari murakkablashib boraveradi. Olimlar tadqiqotchilar uni qancha tadqiq etib, yangi qirralarini kashf etishmasin, yana o'rganilmagan yangi-yangi tomonlari kelib chiqaveradi. "Avesto"da ham aynan olamning, borliqning, tabiatning doimo harakatdaligi, rivojlanishdaligi, murakkab va xilma-xilligi ta'kidlanadi.

"Avesto"da butun olam, insoniyat, tuproq, suv, olov, umuman, yerdagi barcha moddiy va ma'naviy hayot "zaminiy tiriklik", deb tushunilsa, koinot, yulduzlar, quyosh, oy, sayyoralar "osmoniy tiriklik", deya

ta'tirof etiladi. "Avesto" g'oyalariga ko'ra, "Odamzod "kichik olam" (olami sag'ir, jahoni ko'chak)dir. Uning vujudidagi har bir unsur tabiatda ham mavjud. O'limdan so'ng yana o'sha tabiatdagi unsurga qaytish qiladi. Rastoxez – qiyomat ro'y berganda so'ngaklari tuproqdan, qoni suvdan, sochlari giyohlardan, tirikligi olovdan qaytib keladi" [1;159–160-b.]. Ushbu fikrlardan shuni anglaymizki, "Avesto" g'oyalarida moddiy va ma'naviy olam bilan bir qatorda, ilohiy olam haqida ham talaygina mulohazalar mavjuddir. Zardushtiylikda, asosan, olam haqidagi murakkab masalalar, uning kelajagi, yaratilishi, o'tmishiga oid mulohazalar ilohiy qudrat hosilasi sifatida talqin etiladi. Olam ikkiga, ya'ni "bu dunyo" – o'tkinchi olam va "narigi dunyo" – abadiy olamga ajratib tushuntiriladi. "Bu dunyo"dagi mashaqqatlari evaziga inson "narigi dunyo"da rohat-farog'atga muyassar bulishi uqdiriladi. Shuning uchun ham Zardusht o'z g'oyalari bilan insonlarni faqat ezgu amallar sari boshlagan. Tangri Axura Mazdadan odamzotni ishonchsizlikdan va sustniyatlikdan, qarindosh-urug'lar kaltafahmligidan, hamkorlar, yaqinlar aldovidan, do'st-yorlar fitnasidan asrashini, himoya qilishini so'ragan. Zardusht o'z g'oyalarida insoniyat uchun bu olamda eng maqbul, eng to'g'ri, eng ezgu yo'lni ko'rsatgan. "Avesto" g'oyalariga ko'ra, harakat manbayi va harakatlantiruvchisi bu – oliy xudo – Axura Mazdadir. "Avesto"da o'qiymiz:

– Ey Axura!

Sendan o'tinaman, haqiqat bilan javob ber:

–Ibtidodi borliqning yaratuvchisi kim?

–Quyosh va yulduzlar gardishiga asos solgan zot kim?

… Ashah, haqiqatdan, eshitdimki, Axura uning (olamning, borliqning) yaratuvchisi…

… Alhol, Olamlarni yaratgan Zot.

Axura menga aytgan narsalar xususida so'zlamoqchiman. Odamlarga ushbu so'zlarni tinglamoqlik eng ulug' a'moldir [1;22-b.].

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlashimiz o'rinliki, "Avesto" butun jahon falsafiy fikrlar taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ilk bora olam va borliqning vujudga kelishi haqidagi qarashlarni bayon etgan diniy, falsafiy, tarixiy manbalardan biri sanaladi.

"Avesto" insonning axloqiy va ma'naviy kamoloti borasidagi qarashlar ilgari surilgan juda nodir asar hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" g'oyasi necha ming yillar o'tgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. "Avesto"ning axloqiy-falsafiy ta'limoti uch asosning birligiga tayanganligi alohida qayd etiladi. Undagi o'zaro muvofiqlik xislati yagona xudo–Axura Mazda timsolida ko'rsatilgan. Shuningdek, tartib timsoli sifatida Axura Mazda, xaos timsoli sifatida Axriman keltirib o'tilgan. Insonning qadri yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda bee'tibor qolmasligida, yashash tarzida, ma'naviy qiyofasida va ijtimoiy hamkorlikda o'z ifodasini topganligi diniy-falsafiy g'oyalar asosida isbotlab beriladi. "Avesto" g'oyalariga ko'ra, olov kishilarni barcha gunohlardan poklovchi sehrli kuch hisoblanadi va unga bag'ishlab maxsus otashxonalar qurishgan. Hatto, bugungi kungacha olovning poklovchilik talqini o'zbek xalqi ma'naviyatida qadriyat sifatida saqlanib kelmoqda.

Keyingi yillarda "Avesto"dagi huquqiy, diniy, falsafiy, tibbiy, geografik, hatto astronomik g'oyalar ham ko'plab o'zbek faylasuflari tomonidan tadqiq etilmoqda. O'zbek Avestoshunos olimasi R.Urazova fikricha, "O'zbekistonda Avestoshunoslikning ilmiy asoslari endigina yaratilmoqda" [10;522-b.). Umuman olganda, o'zbek xalqining qadimiy ma'naviy meros namunasi hisoblangan "Avesto" kitobi hamda unda ilgari surilgan falsafiy, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy, ilmiy-nazariy g'oyalarni tadqiq etish bugungi global taraqqiyot davrida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). 1. "Avesto"ning yaratilishi Markaziy Osiyo xalqlarinigina emas, balki butun jahon dinlari va falsafasining shakllanishiga sezilarli ta'sir etdi. "Avesto", falsafiy, ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy, siyosiy, huquqiy barhayot g'oyalari bilan bugungi kun falsafiy va ilmiy dunyoqarashini, tafakkur tarzini shakllantirish uchun ko'mak bera oladi.

2. "Avesto"dagi falsafiy g'oyalarni tahlil etishda, ushbu fikrlarni bugungi davr muhitiga moslashtirishda an'anaviy tadqiqot metodologiyalari bilan birga, zamonaviy falsafiy-ilmiy metodologiyalardan, shuningdek, sistemali, sinergetik va germenevtik yondashuvdan oqilona foydalanish asarning yangi tomonlarini ochib beradi.

3. Bugungi kunda turli global muammolar – ekologik halokatlar, terrorizm, ekstrimizm, odam savdosi, giyohvandlik, turli kasalliklar avj olayotgan bir zamonda noyob g'oyalarni o'zida mujassam etgan, odamlarni ezgulik sari da'vat eta oladigan, yaxshilikka ergashtiradigan muqaddas "Avesto" kitobini yangi ilmiy, falsafiy metodologiyalar orqali hali ochilmagan tomonlarini kashf etib, odamlar qalbi va ongiga yetkazish, singdirish muhim funksional ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). “Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(2). “Авесто”. “Видевдот” китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., ТДШИ нашриёти, 2007.

(3). “Авесто”. Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. Т., “Шарқ”, 2001.

(4). Абдуллаева М.Н. “Авесто” в аспекте синергизма. «Авесто қадриятлари. Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(5). Махмудова Г., Арифханова С. Зардўштийлик фалсафаси. Т., “Noshir”, 2014.

(6). Рахманов Б. Инсоннинг руҳий-маънавий ўз-ўзини ташкиллаштиришининг фалсафий илдизлари (монография). Самарқанд, Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2014.

(7). Сафарова Н., Бекпулатов Г. The synergetic analysis of the ecological points in the Avesta. «Авесто қадриятлари: Замонавийлик, дин ва фалсафа» мавзусидаги халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Т., “Навруз”, 2013.

(8). Тураев Б. Фалсафа тарихининг қисқача баёни. Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2010, 2-сон.

(9). Тураев Б. Борлиқ: моҳияти, шакллари, хусусияти. Т., “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2011.

(10). Уразова Раъно. Мустақил Ўзбекистонда зардуштийлик илоҳиёт тизими генезиси ўрганилиши масалаларига доир. Ўтмишга назар. Взгляд в прошлое. Look to the past. № SI, 2020.

(11). Эргашева М. Духовно-психологическая самоорганизация человека в идеях “Авесты”. Вопросы гуманитарных наук. Россия, 2013, № 3, с. 63–68.

(12). Эргашева М. Синергетический подход к некоторым идеям в “Авесте”. Credo-new. С-Петербург, 2015.

(13). Ergasheva M. The synergestic nature of the struggle between good and evil in Zoroastrianism. International scientific journal «Theoretical & Applied Science». France. Philadelphia, USA, 2015, № 09.

(14). “Авесто”нинг синергетик таҳлили. Монография, Самарқанд, СамДУ, 2016.

(15). Ergasheva M. Djavatova O. “Avesto” a philosophical source calling for goodness. JMEA Journal of Modern Educational Achievements 2023, Volume 10.

Qosnazarova Palzada Quanishbaevna (Nukus davlat Pedagogika instituti doktoranti; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING IJTIMOIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada jadidchilik harakatining etakchi rahnamolaridan Behbudiy va Abdurauf Fitrat faoliyati va unga bog‘liq dunyoqarashlari, kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni nafaqat huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, balki ma’naviy-madaniy, ijtimoiy va axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi barkamol avlodni voyaga yetkazish bo‘yicha olg‘a surgan g‘oyalari, I.Gasprinskiyning taraqqiyotga eltadigan birdan-bir ishga yaroqli tarbiya usuli sifatidagi “usuli jadid” targ‘iboti, jadidlarning tuzgan siyosiy partiyalari va ularning qatag‘onga uchrashlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar harakati, usuli jaded, oila, milliy mafkura, jadid maktablari, bosmachilik urushi, Qo‘qon Muxtoriyati, Oktabr jvoqealari.*

Косназарова Палзада Куанышбаевна (докторант Нукусского государственного педагогического института; palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНЫЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМ

Аннотация. *В статье раскрываются взгляды Бехбудий и Абдурауфа Фитрата, одних из ведущих лидеров джадидского движения, идеи, выдвинутые И.Гаспринским как единственный работоспособный метод образования, ведущий к развитию, являются идеями молодых людей, которые считаются фундаментом будущего. пропаганда, политические партии, созданные джадидами, и их встречи с изгнанниками.*

Ключевые слова: *Джадидское движение, метод джадидов, семья, национальная идеология, джадидские школы, печатная война, Кокандская автономия, октябрьские события.*

Kosnazarova Palzada Kuanyshbaevna (Doctoral student of Nukus State Pedagogical Institute palzadaquwanishbaevna@gmail.com)

SOCIAL, SPIRITUAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE JADIDISM MOVEMENT

Annotation*. In the article, Behbudiy and Abdurauf Fitrat, one of the leading leaders of the Jadid movement, and their worldviews related to it, the ideas put forward by I. Gasprinsky as the only workable education method that leads to development, the ideas of I. Gasprinsky, as the only workable method of*